



ASALARICHILIK XO'JALIKLARIDA AKARAPIDOZ KASALLIGINI DIAGNOSTIKASI DAVOLASH VA QARSHI KURASH TADBIRLARI

¹To'liqinov Ibrohim Magistrant

²Safarov Alisher Ilmiy rahbar

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7885067>

ARTICLE INFO

Received: 23th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

*Acarapic woodi, Asalari
Akarapidoz, ona ari, erkak ari
ishchi ari.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada asalarilarda uchraydigan akarapidoz kasalligi haqida.

Hozirgi vaqtda respublikamizda barcha sohalar kabi asalarichilikda ham qator qarorlar ishlab chiqilgan va bu sohani rivojlantirishga ham alohida e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikas Prezidentining "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ - 3327 - son, 2017-yil 16-oktyabrdagi 0128-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi tashkil etildi. Asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikalarimizning barcha hududlarida tatbiq etish Prezident qarorlarida ustuvor vazifa qilib belgilangan. Asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, tarmoqda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, asalarichilik xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, asal mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va turlarini yanada ko'paytirish, asalni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikamizning barcha hududlarida tatbiq etish maqsadida: O'zbekistonga asalarilar birinchi marta 1872 yilda olib kelingan. Tashabbuskor asalarichilar tomonidan tashkil uyatilgan ko'rgazmalar mahalliy aholi o'rtasida asalarichilikning muvaffaqiyatli rivojlanishiga ta'sir etdi. Bu ko'rgazmalarda asalarichilik usullari va asalarichilikdan olingan mahsulotlar targ'ib qilindi. Keyinchalik asalarichilar maktabi ochildi, uni yuritish madaniyati oshirildi. Asalarilar ramkali yig'ma uyalarga kochirildi, endi insonlar asalarilar hayotiga aralashib, ularga o'z vaqtida zarur sharoit yarata oladigan bo'ldi. 1926 yilga kelib O'zbekistonda 1970 asalari oilasi asrab qolindi. 1930 yili O'zbekiston Qishloq ho'jaligi vazirligining qaramogida 20080, 1940 yili 37690, 1970 yili 71672 asalari oilasi asralgan. Bulardan tashqari, havaskor asalarichilarda 70000 dan ko'proq asalari oilasi aniqlangan. 1980 yilga kelib, O'zbekiston bo'yicha 190000 asalari oilasi borligi aniqlangan. 2009-2011 yillari asalarichilikni rivojlantirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan yangi asalarichilik fermer ho'jaliklari yaratildi. Kreditlar ajratilishi hisobiga xususiy asalarichilar ko'paydi. O'zbekiston hududida «Asalchi-Apis» MChJ, «Toshkent shahar havaskor



asalarichilar jamiyati», Namanganda «Shifo» MCHS, «Aziz-94» MChJ, Farg'onada «Asalarichilar jamiyati» kabi tashkilotlar havaskor asalarichilarga asalarichilik sirini o'rgatab kelyaptilar.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi zamon talabiga binoan odamlar hamda este'mol qilayotgan ozuqalaribizda antibiotiklarni ko'payib ketayotgani tufayli antibiotiklardan vos kechib prabiotiklarga o'tilmoqda. Ayni paytda respublikamizda barcha soxalar kabi asalarichilik soxasida ham qarorlar ishlab chiqilgan va bu sohani rivojlantirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi PQ - 3327 - son 2017-yil 16-oktyabrdagi 0128-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq "O'zbekiston asalarichilar uyushmasi tashkil etildi. Prezidentimizning ushbu qarori asalarichilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish, asalarichilik sohasidagi ilg'or tajribalarni respublikalarimizning barcha hududlarida tadbiiq etish vazifa qilib belgilangan.

Akarapidoz: Asalarichilik xo'jaligidagi karpap va karnika zotlari ustida tajribalar o'tkaziladi. Asalarilarning akarapidoz kasalligiga qarshi eng yaxshi samarali preparatlar aniqlanadi. Asalarilarning akarapidozini oldini olish va yo'qotish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar amaliyotga tadbiiq qilinadi. Akarapidoz akrioz, kanali traxéal infetatsiya kata yoshdagi ishchi arilar, erkak arilar va ona arilarning invazion kasalligi, ularning traxeya tizimida kanalarning parazitlik qilishi bilan tavsiflanadi va uchish qobiliyatining yo'qolishi hamda qanotlarining noto'g'ri joylashishi bilan ajralib turadi.

Acarapis woodi - kanasi qo'zg'atuvchisi bo'lib hisoblanadi. Kana mikroskopik o'lchamga ega bo'lib 150 mkm ga yaqin bo'ladi. Tanasi oval shaklda qorin yo'nalishida kuchli ezilgan oqishrangli Voyaga yetgan kananing oyoqlari 4 juft bo'ladi. Kasallik dunyoning ko'plab davlatlarida qayt etilgan Yevropa Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika va Osiyoning bir qator davlatlarida uchraydi.

Rossiya hududlarida alohida o'choqlar hoida uchraydi, asosan Yevropa qismida, Ozarbayjon, Gruzuya, Estoniya, Ukrainada aniqlangan. **Akarapidoz** kasalligi surunkali tarzda kechadi, bir necha yillar (3-4yil) davomida belgisiz kechishi mumkin. Invaziyaning erta belgilari sezilmasdan qolishi mumkin. Kasallikning asosiy belgilari oilada uchdan bir yoki teng yarmi zararlanganda ko'rinadi. Qishlov davrida arilar bezovtalanadi, g'uji tarqoq, uydan bazi arilar o'rmalab chiqadi va uchib ketadi. Diagnostika klinik belgilari va laboratoriya tahlillari natijalariga qarab qo'yiladi. Kanalar faqat laboratoriyada mikroskopik tahlillar va immunoferment tahlil (IFA) yordamida topiladi. Asalarizorda va uning atrofidagi hududlarda akarapidoz paydo bo'lganda 7 km atrofida karantin qo'yiladi. Davolash maqsadida bir qator preparatlar tavsiya etilgan: folbeks, etildi xlor benzilat, efirsulfonate, tedipon, folbeks VA, akasasan va boshqalar tavsiya etildi.

Klinik belgilari. Kasallik surunkali tarzda kechadi, bir necha yillar davomida belgilarisiz kechishi mumkin. Invaziyaning erta belgilari sezilmasdan qolishi mumkin, oiladagi arilarning sonini sekin asta qisqarishidan tashqarisi. Kasallikning asosiy belgilari oilada uchdan bir yoki teng yarmi zararlanganda ko'rinadi. Qishlov davrida arilar bezovtalanadi, g'uji tarqoq, uyadan ba'zi arilar urmalab chiqadi va uchib ketadi. To'kilgan arilar soni odatdagidan (meyordan) ortiqroq bo'ladi.



Bahor va yozdagi ko'rikning birinchi kunida o'zoq muddat noqulay ob-havodan so'ng uchish maydonchasida ko'plab urmalab yurgan, ucha olmaydigan arilar ko'zatiladi, uyadagi arilar esa devordan, ari uyachalaridan tushib ketaverishadi; arilarda raskr̄ylitsa – qanotlarining noto'g'ri joylashuvi ko'zatiladi. Traxeya kesib olib ko'rilsa, unda o'ziga xos jarohatlarni (jarohatlanish darajasiga ko'ra) ko'rish mumkin.

Diagnostika. Diagnostika klinika belgilari va laboratoriya tahlillari natijalariga qarab qo'yishadi. Kanalar faqat laboratoriyada mikroskopik tahlillar va immunoferment tahlil (IFA) yordamida topiladi. Alohida ta'kidlash kerakki, eng past zararlanish darajasini aniqlashning ishonchli uslubi yo'q. Namunalar olishning eng yaxshi muddati – erta bahor yoki kech kuz bo'lib, bunda *Acarapis* populyasiyasi ko'proq bo'ladi. Qari arilarda kanalar soni ko'pligidan kuz bilan baholash osonroq kechadi. Gumonlangan oilalardagi 50ta aridan namunalar olinadi. Bular asosan, urmalab yurgan va ucha olmaydigan, uyaning oldingi qismidan 3 metr atrofida topilgan arilar bo'ladi. Bu maqsadga muvofiq bo'ladi, oila ichidagi arilardan tasodifiy olgandan ko'ra. Arilar nobud bo'lgan yoki tirik bo'lishi mumkin. Tirik arilar o'ldiriladi, buning uchun etil spirti yoki chuqur muzlatilgan muzlatgichga solinadi (-20°S), nobud bo'lgan arilar yangi bo'lishlari kerak. Sog'lom arining traxeyasi yarim shaffof, oq rangli, ular spiralsimon xalqali trubkalar shaklida bo'ladi. Akarapidoz bilan kasallangan arilarda traxeyasi sariq rangli (zararlanishning 1-darajasi), jigar rangli (2-) va qora rangli (3-) bo'ladi va sinuvchan bo'lib qoladi.

Kasallikni tugatish tadbirlari. Asalarizorda va uning atrofidagi hududlarda akarapidoz paydo bo'lganda 7 km atrofida karantin o'rnatiladi. Tuman (shahar) veterinariya stansiyalari zudlik bilan ushbu hududdagi barcha asalarizorlarning egalari (mulkdorlarni), qo'shni tuman veterinariya vrachlarini ogoh etadilar, asalarizorlarni veterinariya ko'rigidan o'tkazishadi.

Profilaktika. Oldindan tahlillar bajarilmasdan asalarizorlarga va qulay hududlarga oilalarni, yangi oilalarni, paketlarni, kelib chiqishi noma'lum bo'lgan ona arilarni olib kelishga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu kasallik oldin tarqalgan hududlarda har yili bahorda asalari oilalari tanlab olinib, akarapidozga tekshirish olib boriladi. Oilalar baland bo'lgan joylarga qo'yiladi. Uyalar, inventar, mum kataklar arilardan izolyasiyada 7-10 kun ushlab turib (kanalar nobud bo'ladi) yoki to'liq dezinfeksiyadan so'ng ishlatiladi.

Xulosa; Yer yuzida insoniyatga ma'lum bo'lgan o'simliklarning 80% ga yaqini oraliq changlanish natijasida tugun tugadi, meva, urug', hosil qiladi. Oraliq changlanishga muhtoj barcha o'simliklarni beshdan to'rt qismi hasharotlar yordamida changlanishga muhtoj hisoblanadi. Entomofil qishloq xo'jalik o'simliklarining hosili changlantirishni qanday yo'lga qo'yilganligiga bog'liq bo'ladi.

References:

1. Qaxramanov B.A. va boshq. "Asalarichilik asoslari" Toshkent – 2021 yil
2. Xaqberdiyev P.S, Qurbonov F.I, Qarshiyeva V.Sh "Baliq va asalari kasalliklari" Toshkent - 2016 yil "Navro'z" nashriyoti.
3. Isamuxammedov A.I., Nikadambayev X.K "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" Sharq nashriyot Toshkent – 2013 yil



4. Isamuxammedov A.I., Nikadambayev X.K. "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari" Sharq nashriyoti, Toshkent – 2013 yil.
5. Nasimov.Sh.N. va boshq. "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" o'quv qo'llanma, Fan ziyosi nashriyoti, Toshkent -2021.